

SHAXS SHAKLLANISHIDA JAMOANING O'RNI

Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti talabasi

Raxmatova Xurriyat Ne'matjon qizi

Annotatsiya. Maqolada ulug' ajdodlarimizning shaxs shakllanishida jamoaning o'rni borasidagi fikrlar keltirib o'tilgan. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati nimalarda namayon bòlishi , o'quvchi shaxsini tarbiyalashda sinf jamoasi qanday o'rin tutishi, jamoa an'analari tarbiyaviy ta'sir vosita sifatida qanday ahamiyatga egaligi egaligi borasida fikrlar bildirib òtilgan.

Kalit sòzlar: shaxs ,jamoa ,muhit,bola ,ijtimoy,sinf

Абстрактный. В статье приводятся мнения о роли общины в формировании личности наших великих предков. Высказывались мнения о воспитательном потенциале студенческого коллектива, роли классного коллектива в воспитании личности ученика, значении общинных традиций как средства воспитательного воздействия.

Ключевые слова: человек, сообщество, среда, ребенок, общество, класс.

Abstract. The article presents the views of our great ancestors on the role of the community in the formation of the personality. The article discusses the educational potential of the community of students, the role of the class community in the upbringing of the student's personality, and the importance of community traditions as a means of educational influence.

Keywords: individual, community, environment, child, society, class

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 17-iyul kuni umumiy o'rta ta'lif tizimini isloh qilish rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida ta'lif muassasalari inson resurslarini rivojlantirishning poydevori,yoshlarda bilim ,dunyoqarash va ma'naviyat asoslarini shakllanturuvchi asosiy maskan ekanini ta'kidladi.Inson resurslarini rivojlantirishda ta'lif

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

muassasalari bilan birga jamoaning roli ham beqiyos . Chunki bola shaxsini kamol topishi jamoada amalga oshadi .Shundan so'ng bolani o'z-o'zini anglashining sodda shakli sifatida òzinining xarakter xislatlarni anglash yuzaga keladi.

Jamoa sòzi lotincha "kollektiaus"sòzidan olingan bo'lib,yig'ilma ,birlashma,omma,bir-galikdagi majlis ma'nolarini bildiradi.Jamoa -bu kishilardan iboratguruh demakdir. Zamonaviy talqinda jamoa tushunchasi ikki ma'noda ishlatiladi.

1) bir necha maqsad kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruh tushuniladi.(masalan,ishlab chiqarish jamoasi ,zavod jamoasi,o'quv yurti jamosi);

2)yuqori darajada uyuştirilgan guruh. Shunday guruhlardan biri sinfdir. Sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bølgan muayyan òquvchilar guruhi.

Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini kòrsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa,mustaqlil fikr egasi bølgan shaxs òz imkoniyatlari ,qobiliyatlarini erkin namayon eta oladi.Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin,mustaqlil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Bu xususida Islom Abduğaniyevich quyidagilarni e'tirof etadi: "Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadibhar bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun ,òz qobiliyatini ,òz talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi,ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatlar ni yaratib berishdan iboratdir" Komil insonni shakllantirish masalasi barcha davrlarda ham muhim ijtimoiy masala sifatida kun tartibiga qoyilgan .Xususan ,Zardushtiylik dinida komillikni asosi ezgu fikr,ezgu sòz ,ezgu amaldan iborat ekanligi ta'kidlansa ,Islom ta'limoti góyalariga kòra yetuklikning bosh mezoni -ilmlilik, bilimli bòlishdir. Sharq mutafakkirlarinig asarlarida ham komil inson qiyofasining yaratilishiga alohida e'tibor berilgan .Xususan , Abu Nasr Farobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoani shakllantirish tarbiyaning bir bitun ,yaxlit ikki yònaliishi ekanligiga urgu beradi . Allomaning fikricha ,fozil jamiyat komil inson sa'y -harakati bilan barpo

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs òzida eng oliv insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur deb deb hisoblaydi.

"Aql tògrisida" gi risolasida Abu Nasr Farobi rahbar shaxs qiyofasida namayon bòlishi lozim bòlgan òn ikki fazilatni keltirib ötadi. Mening fikrimcha ,mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda òz aksini topa olishi kerak zero, ular inson hayotini mòtadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.Bola yoshligidan òyin mehnat va òqish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida borliqni anglash uchungina emas ,balki òzlikni anglash uchun ham imkonyat yaratadi . Bolaning jamoa orasida bòlishi ,jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Bu xususida Abu Ali Ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsning shakllantirishidagi rolini yuqori baholaydi Tashqi muhit va odamlar insoning borliq ,unda kechayotgan òzgarishlar,balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishida ham sezilarli ta'sir etishi ,shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bòlgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi.Xususan ,har bir alohida kishi sotsial guruhrar ,sotsial muassasalar,sotsial insititutlar ,jamiyatda hukmron norma va qadriyatlar , ya'ni madaniyatlar orqali shakllana boshlaydi.Buning natijasida individ kòp miqdordagi turli darajadagi sotsial tizimlarga qoshiladi .Xususan, kishi shakllanishi uchun unda gözal xulq bòlmoğı kerak .Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bòladi

Agar nafs tarbiyat topib ,yaxshi ishlarni qilurga odatga qilsa,yaxshilikga tavsif bòlub, "yaxshi xulq "agar tarbiyatsiz òsub ,yomon ishlaydurgan bòlub ketsa, yomonliqga tavsif bòlub , "yomon xulq" deb atalur.Shu bois doimo yaxshi xulqli bòlish kerak.Shuni ham aytish lozimki ,ma'lum madaniy tajriba butun butun insoniyat uchun umumiylisoblanadi va u yoki bu jamiyatning rivojlanishining qay darajada turganligiga boqliq emas .Masalan ,har bir bola yoshi boyicha òzidan katta kishilardan ovqat oladi ,til orqali muloqot qilishga òrganadi,jazo va mukofot qòllash tufayli tajribaga ega bòladi va bir qancha bosbqa umumiyoq madaniyat namunalarini òzlashtiradi .Shu bilan birga har bir jamiyat amalda òzinining hamma

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

a'zolariga ma'lum òziga xos tajriba , boshqa jamiyat bera olmaydigan muhim madaniyat namunalarini hadya etadi. Mazkur jamiyatning hamma a'zolari uchun bir xil sotaial tajribadan òsha jamiyatning kòp a'zolari uchun xos bòlgan shaxs qiyofasi paydo bòladi .Masalan ,musulmon madaniyati sharoitlarida shakllangan shaxs xristian davlatida tarbiyalangan shaxsga nisbatan boshqa xususiyatlarga ega bòladi.

Amerikalik tadqiqotchi K. Dyuboys shaxsni mavjud jamiyat uchun umumiyligida xususiyatga ega modallik deb atadi . Modal shaxs deganda Dyuboys butun jamiyat madaniyatiga xos bir qancha fazilatlarga ega bòlgan kòp uchraydigan shaxs tipini tushunadi .Shunday qilib ,har bir jamiyatda òrtacha rasm bòlib qolgan xususiyatiga ega shaxslarni topish mumkin .Modal shaxs òzida madaniy tajriba davomida jamiyat òzining a'zolariga singdirgan hamma umummadaniy qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Bu qadriyatlar kòproq yoki ozroq darajada mazkur jamiyatning har bir shaxsida mavjud bòladi .

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir - biridan farqlash lozim . Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli kòrinishlarini amalga oshirish uchun zarur bòladigan tashkiliy jihatlari kòzda tutiladi .Jamoaning norasmiy tuzilmasi jamoaning barcha a'zolari òrtasidagi shaxslararo ma'naviy -psixologik munosabatlarning umumiyligini tizimi va mikroguruhni tashkil qilish qiluvchi ayrim a'zolar òrtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi.

Xulosa òrnida shuni aytish mumkinki, jamoa va uni shakllantirish òqituvchilik faoliyatining maqsadi hisoblanadi .Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bòlgan subyektlarning namuna kòrsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bòlib ,uning yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash mumkin . Jamoa tomonidan hal etilishi kòzda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash ,unda ijobjiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1)Shavkat Mirziyoyev "Yangi Özbekiston strategiyasi" Toshkent 2021-yil 458- bet
- 2)Begzod Hodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Sano standart nashriyoti darslik 2017
- 3)"H.Ibrohimov M.Quronov "Umumiy pedagogika" Toshkent sahhof nashriyoti 2023-yil